



SUN'Y SUV HAVZALARNING HUDUD BIOXILMA- XILLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNINI

To'raev M.M.

Biologiya kafedrasida dotsenti ((BuxDU)

Umedov Azizbek Hasanovich

magistrant (BuxDU)

Ibodullaeva Noila Ergash qizi

magistrant (BuxDU)

Mansurova Oybachin Jobir qizi

talaba (BuxDU)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17462185>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-oktabr 2025 yil

Ma'qullandi: 25-oktabr 2025 yil

Nashr qilindi: 28-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

Gidrofill qushlar, migrant
qushlar, nodir turlar,
nomuntazam uchrovchi
qushlar, ixtiofag
qushlar, qararalar,
rijankasimonlar, biotsenoz,
biotop, ekologik nisha.

ABSTRACT

Maqolada faunaning tur tarkibi va biologik xilma-xillikni qayta shakillanish jarayonini, sun'iy suv havzalarning tashkil etilishi bilan hududda kuzatilayotgan o'zgarishlar tahlili bayon etiladi.

Biologik xilma-xillik termini so'nggi yuzliklar davomida fanga kirib kelgan tushinchalardan bo'lsada, tabiiy biotsenozlar asosan tirik organizmlar jamoalarining yaxlitligi asosida shakillangan va unda turlar bir-birisiz mukammalligini yo'qotuvchi murakkab birlik sifatida mavjuddir. SHunday ekan, tabiiy biotoplarda, uzoq yillar davomida, evolyusiya jarayonida takomillashib kelgan bu birlikni yaxlitligicha saqlab qolish insoniyat oldidagi bosh vazifalardan biridir.

Ammo so'nggi yillarda insoniyatning turli xo'jalik faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan sun'iy biotsenozlar - suv omborlar, agrotsenozlar, o'rmonchilik xo'jaliklari, axoli punktlari va uning tevrigidagi biotoplarda bioxilma-xillikning o'zigaxos birligi yillar davomida shakillanib, borishi kuzatilmoqda.

Material metodikasi: Quyida bayon etilayotgan ma'lumotlar 1989-2025 yillar (yilning barcha mavsumlari) davomida, Buxoro viloyatining "Buxoro" va "Kogon" baliqchilik xo'jaliklari hududida, To'dako'l va Quyimozor suv omborlari hududida olib borilgan ko'p yillik kuzatuvlarimiz natijalariga asoslangan.

Tadqiqotlarimiz davomida turlarning biotopik tarqalishi, uchrash xarakteri, soni va ekologik xususiyatlarini o'rganishda, Kashkarov (1927);, Novikov, (1949); metodlari asosida olib borildi.

Materialning bayoni: O'rganilgan nuqtalarning barchasi so'nggi 50-60 yillar davomida insoniyatning faoliyatlari asosida shakillantirilgan va tabiiy biotoplar - antropogen omillar kurshovida qolgan. O'ranilgan har ikki ko'rinishdagi suv havzalar hududida ham, umurtqali hayvonlarning turlar xilma-xilligi tabiiy biotoplarga nisbattan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ammo sun'iy suv havzalar inson tomonidan turli maqsadlarga mo'ljallanib (baliqchilik, sug'orish, ichimlik suv manbai yoki aralash) maqsadlarga mo'ljallanib barpo etiladi. SHundan kelib chiqib ushbu suv havzalar va ularning hududida turli ko'rinishdagi biotoplar shakillangan. Buxoro va Kogon baliqchilik xo'jaliklari aynan baliqlarning ayrim turva zotlarini parvarishlashga ixtisoslashtirilgan bo'lib, ularning maydoni To'dako'l va Quyimozor suv omborlarning umumiy maydoniga nisbatan kichikligi bilan farqlanadi, bu esa bu ikki tip suv havzalarning turlarning xilma-xiligi seroblighi va ularning ekologiyasiga ta'sir etadi (1-2 jadvallar).

1-Jadval

Buxoro viloyatida shakillantirilgan sun'iy suvhavzalarning gegekologik tahlili

T\r	Suv havzalarning nomlanishi	Tashkil etilgan vaqti	maydoni	Ixtisoslashuvi	Antropogen faoliyatning ta'sir darajasi	Suv havzalarning tevaragidagi biotoplar			
						Agrotsenozi	Aholi punktlari	Qumlik, taqir sho'rlangan biotoplar	To'qay va qamishzorlar
1	Kogon b/x	1985	260	b	yu-d	-	-	+	+
2	Buxoro b/x	1979	320	b	yu-d	+	+	+	+
3	To'dako'l s/o	1970	2900	i/b	yu-d	+	+	+	+
4	Quyimozor s/o	1970	7000	i	o'-d	-	-	+	-

Izoh: b-baliqchilik; i/b- irrigatsiya va baliqchilik; i-irrigatsiya, yuqori-darajadagi, o'rtacha-darajadagi

Shuningdek suv havzalarning geografik o'rni, ixtisolashuvi va antropogen faoliyatning ta'sir darajasi turlicha bo'lib, bu jihatlar hududda umurtqali hayvonlarning turlar xilma-xilligini, sonini va turlarning uchrash xarakterini belgilovchi bosh omil sanaladi (2-jadval).

2-Jadval

Sun'iy suv havzalar hududida qayd etilgan umurtqali hayvonlarning turlar xilma-xilligi

T/r	Umurtqali hayvon sinflari	Suv havzalar					
		<i>Jami turlar</i>	Kogon baliqchilik xo'jaligi va uning tevaragida	Buxoro baliqchilik xo'jaligi va uning tevaragida	To'dako'l suv ombori va uning tevaragida	Quyimozor suv ombori va uning tevaragida	
							<i>tur soni</i>
							%
1	Baliqlar – <i>Pisces</i>	34	13	29	34	31	
		100%	38,2%	85%	100%	91%	
2	Suvda va quriqlikda yashovchilar - <i>Amphibia</i>	2	2	2	2	2	
		100%	100%	100%	100%	100%	
3	Sudralib yuruvchilar – <i>Reptilia</i>	26	24	21	25	19	
		100%	92.3%	80.7%	96.1%	73%	
4	Qushlar – <i>Aves</i>	143	114	131	143	126	
		100%	79.7%	91.6%	100%	88.1%	
5	Sut emizuvchilar – <i>Mammalia</i>	29	17	26	29	19	
		100%	58.6%	89.9%	100%	65.5%	
JAMI umurtqali hayvonlar		234	170	209	232	197	

Buxoro baliqchilik xo'jaligi Buxoro shahridan 8 km. shimoliy sharqda Buxoro tumanining shimoiy chegarasida, Gazli avtotrassasining G'abi va Zarafshon daryosining sharqiy qismi oralig'ida 360 ga maydonda 1977 yilda tashkil etilgan bo'lib, shundan suv akvatriyasi 256 ga.ni, quruqliklar 104 ga maydonni tashkil qiladi. Kogon baliqchilik xo'jaligi esa Kogon tumaninig sharqiy qismida, To'dako'l suv omborining januiy g'arbida 260 ga maydonga ega bo'lib, 1985 yillarda tashkil etilgan. Har ikki baliqchilik xo'jaligi tashkil etilgan yilda aholi punkitlaridan 5-15 km uzoqlikda, sho'rlangan er maydonlarida shakillantirilgan. Ammo bugungi kunda ushbu suv havzalar, o'zlashtirilgan angrotsenozlar qurshovida qolmoqda.

Ayniqsa Kogon baliqchilik xo'jaligining maydoni unga chegradosh qamizorlar, ko'lmak va zovurlar bilan o'ralgan, sho'rtoq va cho'l dalalari bilan chegaralanadi. Bugungi kunda xo'jalikning shimoliy g'arbida ham ko'lmaklar hovuz ko'rinishiga keltirilib baliq parvarishi yo'lga qo'yilgan.

Buxoro baliqchilik xo'jaligi esa, tashkil etilgan vyillarga nisbattan birmuncha o'zlashtirilgan hovuzlar ko'rinishiga keltirilgan, va bunda antropogen faktorlarning ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi.Xo'jalikda har biri 30-90 ga mayonga ega bo'lgan 7 ta tovar baliq

parvarishlanadigan hovuzlar, 2 ta baliq chovoqlari parvarishlanadigan hovuzlar va 4 ta nasldor baliqlar parvarishlanadigan hovuzlar mavjud.

Hovuzlarning suv ta'minoti, Amu-Buxoro mashina kanalidan keluvchi "Xayrobod" kanal orqali amalga oshiriladi. Hovuzlardan oqib chiquvchi suvlar ichki zovurlar orqali oqiziladi. Xo'jalik hovuzlari tevaragidagi maydonlar, qamishzor, butta va yantoqzor, shuningdek, g'o'za, bug'doy, arpa, beda kabi ekinlar parvarishlanadigan agrotsenozlar va qisman o'zlashtirilgan tabiiy biotoplarga yaqin bo'lgan tepaliklar, Zarafshon daryosi (hozirgi Buxoro markaziy zovuri) bilan chegarlangan. Xo'jalikning shimoliy sharqiy chegarasi bo'ylab, Buxoro-Gazli avtomagistirali o'tgan. (Xarta).

Xo'jalik hududi va uning chegaralaridagi biotoplarda jami bo'lib 209 tudagi umurtqali hayvonarning barcha sinf vakillari qayd etildi (2-jadval). Hududda qayd etilgan hayvolar biotoplar bo'ylab quyidagi ko'rinishda tarqalganligi qayd etildi (Jadval 1). Xo'jalik hududida qayd etilgan umurtqalilarning tarqalishi, uchrash xususiyatlari, soni, zichligi va ekologik omillarga moslashganlik darajasi xo'jalik tevaragidagi biotoplarga nisbatan yuqori sonni namoyon etadi va bunday holat Kogon baliqchilik xo'jaligiga nisbatan yuqoriligini namoyon etadi (1-Jadval, 2-jadval).

Odatda tabiiy biotoplarda antropogen ta'sirlar tufayli vujudga keltirilgan har bir o'zgarish hudud hayvonot olami vakillari tomonidan ma'lum vaqt davomida o'zlashtirilib, unga nisbatan moslashish yoki undan uzoqlashish "chekinish" harakatlarini namoyon qilsada, baliqchilik xo'jaliklari hududining turg'un tarkibli shakllangan deya olmaymiz. Bu jarayon bir necha jihatlarga bog'liq bo'ladi, jumladan, hududning maydoni, hududda antropogen faoliyatning ta'sir darajasi, antropogen faoliyat turi, uning davomiyligi kabi holatlarga bog'liq bo'ladi.

Buxoro va Kogon baliqchilik xo'jaligi hovuzlari asosan oq amur, do'ngpeshona, zog'ara va ba'zan, kichik maydonda Afrika laqasi turlar parvarishlashga ixtisoslashtirilgan bo'lsada xo'jalik hududiagi turli biotoplarda o'ziga xos biologik jamoalar shakllangan. Xo'jalik hovuzlarida quyiladigan suv tarmoqlari, Amu-Buxoro kanali, To'dako'l suv omboridan chiqqan va Romitan tumanidan oqib o'tuvchi Xayrobod kanali hisoblanadi. Kanal suvida To'dako'l ixtiofaunasi tarkibidagi bir qator baliq turlari suv orqali xo'jalik hududidagi ariq va zovurlarga tushib, hudud ixtiofaunasi tarkibini shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda baliqchilik xo'jaligi hududidagi ariq, zovur va Markziy Zovur suvliklari va kanallarda 4ta turkum, 7 ta oilaga masub bo'lgan 29 ta baliq turi uchraydi (3-Jadval). Ushbu xilma-xillik tarkibidagi turlar ba'zan hovuzlarga quyiladigan suv bilan xo'jalik hovuzlariga kirib kelishi kuzatiladi.

3-Jadval

Buxoro va Kogon baliqchilik xo'jaligida uchrovchi baliq turlari

T/r	Baliq turlari	Xo'jalikda parvarish etiladigan turlar	Xo'jalik hovuzlari va ichki suv tarmoqlari da tasodifan kirib keladigan turlar	Xo'jalik tevaragidagi suvliklarda (ariq, kanal va zovurlarda) uchrovchi
-----	---------------	--	--	---

				turlar
1. Turkum . KarpSimonlar - <i>Cypriniformes</i>				
1. Oila . Karplar - <i>Cyprinidae</i>				
1	CHiziqli tezsuzar- <i>Alburnoides taeniatus</i> (Q)			+
2	Amur chebakchasi- <i>Pseudorasbora parva</i> (Z)		+	+
3	Zarafshon oq chebagi - <i>Leuciscus lehmanni</i>			+
4	Qizil labli oq qayroq - <i>Aspius aspius taeniatus</i>		+	+
5	Orol mo'ylovli balig'i - <i>Barbus brachycephalus</i>			+
6	Parrak (nashtarqanot) - <i>Capoetobrama kuschakewitschi</i>			+
7	Turkiston qumbalig'i - <i>Gobio gobio lepidolaemus</i> (Q)		+	+
8	Orol moybalig'i - <i>CHalcalburnus chalcoides aralensis</i>			+
9	Samarqand xramulyasi - <i>Varicorhinus heratensis steindachneri</i>			+
10	Turkiston mo'ylovdori - <i>Luciobarbus conocephalus</i> (Z)		+	+
11	SHarq tezsuzari - <i>Alburnoides bipunctatus eichwaldi</i>		+	+
12	Oqcha - <i>Abramis brama</i> (A)		+	+
13	SHarq oqchasi - <i>Abramis brama orientalis</i> (A)			+
14	Kumush tovonbaliq - <i>Carassius gibelio</i> (Q)		+	+
15	Zog'ora - <i>Cyprinus carpio</i> (Z)	+	+	+
16	Oq do'ngpeshona - <i>Hypophthalmichthys molitrix</i>	+	+	+
17	CHipor do'ngpeshona - <i>Aristichthys nobilis</i>	+	+	+
18	Oq amur - <i>Ctenopharyngodon idella</i> (I)	+	+	+
19	Qora amur - <i>Mylopharyngodon piceus</i> (I)			+
20	Qorako`z - <i>Abramis sapa</i>			+
21	Ko'zli taxir baliq- <i>Rhodeus ocellatus</i>		+	+
22	Xitoy soxta qumbalig'i- <i>Abbotina rivularis</i>		+	+
2.Oila. Eshvoylar- <i>Cobitidae</i>				

23	Amudaryo yalang balig`i- <i>Nemacheilus oxianus (A)</i>			+
2.Turkum. Laqqasimonlar – <i>Siluriformes</i>				
1.Oila. Laqqalar- <i>Siluridae</i>				
24	Laqqa- <i>Silurus glanus (A)</i>		+	+
25	Afrika laqqasi- <i>Clarias griepinus</i>	+		+
3.Turkum. Olabug`asimonlar- <i>Perciformes</i>				
1.Oila. Olabug`alar- <i>Percidae</i>				
26	Oq sla - <i>Stizostedion lucioperca</i>		+	+
2Oila. Buqabaliqlar- <i>Gobiidae</i>				
27	Amur buqabalig`i- <i>Rhinogobius bruneus</i>		+	+
3.Oila. Ilonbosh – <i>CHannidae</i>				
28	Ilonbosh- <i>CHanna argus</i>		+	+
4.Turkum. Kefalsimonlar- <i>Mugiliformes</i>				
1.Oila. Gambuziyalar-Poeciliidae				
29	Oddiy gambuziya – <i>Gambusia affinis</i>		+	+
	Jami	4	18	29

Shuningdek baliqchilik xo`jaliklari hududida amfibiylarning 2 ta turi yashil qurbaqa- *Bufo viridis Laurenti*, ko`l baqasi –(*Rana rdibunda Pallas,1771*) keng tarqalgan bo`lib,xo`jalikda turli hasharotlar va ularning lichinkalari bilan oziqlanish bilan bir qatorda, baliq chovoqlari bilan oziqlanib, baliqchilikda ziyon keltiradi. O`z navbatida amfibiylar, suv va suvoldi qushlaridan, qarqaralar, laylaksimonlar va rijankasimonlar turkumi vakillari, ayrim sudralib yuruvchilar uchun oziqa zanjirining ajralmas qismi sifatida alohida o`ringa ega.

Baliqchilik xo`jaliklari hududlarida uchraydigan sudralib yuruvchilarni mos ravishda 24 va 21 turi qayd etilib, ular yashash sharoitiga qarab 2 ta ekologik guruhga, quruqlik va suv namlangan ekologik guruh bo`linadi. Ushbu turlar orasida O`qilon –(*Psammophis lineolatus*), Suvilon- (*Natrix tessellata*), Naqshdor chipor ilon- (*Elaphe dione*) alohida o`ringa ega. Ushbu turlar baliqchilik xo`jaligi hovuzlari va uning tevaragidagi qamishzor biotoplarida keng tarqalgan va baliqchilik xo`jaligi uchun ziyon ketiruvchi turlardan sanaladi. Sinf vakillaridan O`rta Osiyo toshbaqasi – (*Testudo horseiildi Gray.*), qum bo`g`ma iloni - (*Eryx miliaris Pall*) kabi turlar O`zbekison Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan, kam sonli turlari sanalsa, hududda kaltakesaklar (*Sauria*) kenja turkumining 7 turi vakillari keng tarqalgan. O`z navbatida ushbu turlar ko`k qarqara-(*Ardea cinerea*), saman qarqara-(*Ardea pururea*) va botqoq bo`ktarg`isi- (*Circus aeruginosus*), hamda, shalponquloq tipratikanlar- (*Hemiechinus aurtus*) uchun asosiy ov manbai sifatida xizmat qiladi.

Kuzatishlarimiz davomida xo`jalik hovuzlari hududida suv va suv oldi qushlari hayotida eng muhim makon sifatida tanlanadi. Bugugi kunda Buxoro xo`jalik hududida qushlarning 131 turi, Kogon baliqchilik xo`jaliklarida esa 114 turdagi qushlar yilning turli mavsumlari davomida qayd etilib, shundan o`troq turlarning 23 va 12 turni, uya qurishda kelib ketuvchi, 32 va 24 turni, migrantlar, uchib o`tishda uchrovchi 78 va 81 turni, qishlashda kelib ketuvchi 7 va 4 turni va nodavriy uchrovchi turlarning 4 ta turi qayd etildi. Kuzatishlar olib borilgan hududda qayd

etilgan qushlardan 24 turdagi O'zbekiston va Xalqaro "Qizil kitobi"ga kiritilgan qushlar bo'lib, shundan 2 turi uya qurishda, 14 turi uchib o'tishda va 2 turi qishlashda uchrashi kuzatiladi.

Ammo suv va suvoldi qushlarning aksariyati sof va qisman ixtiofag qush turlaridan iborat bo'lib, oziq tarkibi hovuzlari tevaragidagi umurtqali va umurtqasiz jonzotlardan tarkib topgan qushlarning katta qismi bahorgi va kuzgi migratsiya davomida uchiriladi. Ular orasida uya quruvchilarning Buxoro baliqchilik xo'jaligida 12 turi, Kogon baliqchilik xo'jaligida 28 turdagi uya quruvchi qushlar ro'yxatga olinib, ularning oziq tarkibi asosan suv hasharotlari va baliq chovoqlari tashkil qiladi.

4-Jadval

Baliqchilik xo'jaliklaridagi ixtiofag qushlarning yoz mavsumidagi soni

t/r	Turlar nomi	Oylar		
		Iyun	Iyul	Avgust
1	Qo'ng'ir	46	48	63
2	Qanjir	12	16	21
3	Harom qoravoy	6	4	12
4	Kichik qoravoy			
5	Pushti birqazon	1	-	2
6	Jingalakli birqozon	4	1	1
5	Haqqush	11	14	10
7	Ko'k qarqara	14		
8	Kichik oq qarqara	16		
9	Katta oq qarqara	3		
10	Saman qarqara	11		
11	Katta ko'lbuqa	2	4	4
12	Kichik ko'lbuqa			
13	Qoshiqburun	11	8	10
14	Qoravoy	6	8	9
15	Botqoq bo'targ'isi	2	-	4
16	Kumushsimon baliqchi	1	-	-
17	Qoshiq burun	8	9	7
18	Qoravoy	26	18	22
19	Ingichka tumshuq baliqchi	26	24	28
20	Ko'l baliqchisi	32	36	34
21	Daryo chigirchisi	26	18	22

22	Kichik chigirchi	46	28	19
23	CHegrava	6	11	8
24	Ko'k targ'oq	6	2	4
	Jami (%da)	274	248	278

Suv havzalarida uya quruvchi turlarning tur tarkibi yillar davomida shakllanib boradi. Bunday harakatlar Qoraqir ko'lida 15-20 yilni (R.Sagitov, Pukinskiy, 1989) talab etgan bo'lsa, baliqchilik hovuzlarida bu muddat birmuncha qisqa vaqtni talab etadi. SHu munosabat bilan 1988-89 yillar davomida Buxoro baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida uya quruvchi turlar sifatida bor-yo'g'i 8 tur qush (qo'ng'ir, qanjir, katta qiziloyoq, daryo chigirchisi, kichik chigirchi, suvtarg'oq, qashqaldoq, suvmoshak) ro'yxatga olingan bo'lsa (M.To'raev,1998) 2001yilda bu tarkibga ko'k va saman qarqaralarni qo'shilganligini va shundan boshlab ushbu turlarni hududda muntazzam uya qurib kelayotganligini guvohi bo'lyapmiz.

Kogon baliqchilik xo'jaligida esa 2001-08 yillar davomida olib borilgan kuzatishlarimiz davomida 28 tur qush uya qurishi qayd etildi (jadval) eng muhimi uya qurishda qayd etilgan turlarning 36% (27 turi), uya qurishda ishtirok etayotgan qushlarning 78% ixtiofag turlar (18 turi) hissasiga to'g'ri keladi. Adabiyotlarda xuddi shunday xilma-xillikning yuqoriligini biz Xorazm baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida ham qayd etilganini ko'rishimiz mumkin (To'raev, 1995). Ushbu ma'lumotlarning tahlilidan shu narsa bizga ma'lum bo'ladiki, baliqchilik xo'jaligidagi ornitofaunaning tur tarkibi baliqchilik xo'jaligining tevaragidagi ekologik holatga bog'liq bo'ladi, ya'ni xo'jalik tabiiy suv havzalarga yaqin joylashgan bo'lsa, bunday xo'jalik hovuzlarida ixtiofaklarning son va tur tarkib jihatdan yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Kogon baliqchilik xo'jaligi viloyatning yirik suv havzalaridan biri, ixtiofaunasi boy bo'lgan To'dako'l suv ombori yaqinida joylashganligi keltirilgan fikrimizni tasdiqlaydi. SHuning uchun ham, kuzatishlarimiz davomida Buxoro baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida bugungi kunda 12 tur qushlarning uya qurishi kuzatilsa, Kogon baliqchilik xo'jaligida bu raqam 27 turga teng va uning 8 turini sof ixtiofag turlar tashkil etadi (5- jadval).

5- jadval

Baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida qayd etilgan ixtiofag qushlarning uchrash xususiyatlari haqidagi ma'lumot

t/r	Qushlarning turlari	Qishlovchi turlar	Migrant turlar	Uya quruvchi turlar
1.	Qanjir	+		+
2	Qo'ng'ir	+		+
3	Harom qoravoy	+		
4	Kichik qoravoy	+		
5.	Pushti birqozon		+	

6	Jingalakli birqozon		+	
7.	Katta ko'lbuqa			
8	Kichik ko'lbuqa		+	
9.	Haqqush	+		
10.	Katta oqqo'ton	+		
11	Kichik oqqo'ton		+	
12	Saman qo'ton		+	+
13	Ko'k qo'ton	+		+
14	Qoshiqburun		+	
15	Qoravoy (karavayka)		+	
16.	Kumushsimon baliqchi	+		
17	Qoraboshli baliqchi	+		
18.	Ko'l baliqchisi	+		
19	Ingichkatumshuq baliqchi	+		
20	Daryo chigirchisi		+	+
21	Kichik chigirchi		+	+
22	Qora chigirchi		+	
23	CHegrava		+	
24	Uzun dumli suv burgut	+	+	
25	Oqdumli suvburgut	+	+	
26	Suvqiyg'ir	+	+	
27	Botqoq buturgisi	+		+
	Qayd etilgan jami turlar	15	14	7

Xo'jalik hududida uchrovchi sut emizuvchilarning xilma-xilligi va soni hududning ekologik holatga bog'liq holda (hovuzlarning suv sathi, o'simlik qoplami, antropogen faoliyatning darajasi) o'zgaruvchan xarakterni namoyon qiladi. Hududda qayd etilgan sut emizuvchilar orasida, 26 turi qayd etilib, ular orasida odatiy turlar sifatida uchrovchi 5 turkum Hasharotxo'rlar turkumi -(Insectivora) mansub bo'lgan 2 turdagi, Qo'lqanotlilar turkumi-(CHiroptera) dan 5 turdagi, Tovushqonsimonlar turkumi - (Lagomorpha) 1 turdagi, Kemiruvchilar turkumi -(Rodentia) dan 8 turdagi, Itsimonlar turkumi ning 5 turi vakillarini, va Yirtqichlar turkumi - (Carnivora) ga mansub bo'lgan 2 turdagi hayvonlarni so'nggi yillarda muntazam qayd etish mumkin.

Kuzatilgan suv havzalar orasida faunaning eng turlarga boyi To'dako'l suv ombori va Quyimozor suv omborlarida qayd etildi (2-jadval). Bu holat avvalo suv omborlarning shakillanishi vaqtining birmuncha qadimiyligi bo'lsa, ikkinchidan mazkur suv havzalarning geografik joylashuvi ham antropogen omillardan birmuncha himoyalanganligidir. Eng asosiysi, suv omborlarning oziqa zaxiralarining serobliligi suv va suvdi umurtqalarini jalb qiluvchi omil sanaladi.

Xulosa: Olib borilgan kuzatuvlarimiz yakunida shuni qayd etishimiz lozimki, insoniyat tabiatga ko'rsatadigan har bir faoliyatini ijobiy va salbiy jihatlari borligini inobatga olib, joylarda muntazam monitoring ishlarini olib borishni yo'lga qo'yish lozim. Insoniyatning xo'jalik faoliyati tufayli shakllangani sun'iy biotplar yillar davomida umurtqali havonlarning o'ziga xos jamoasini shakllinishi bilan hududda sun'iy o'zlashgan tabiiy biotsenoz shakllnadi. Inson ushbu biologik birlikdan foydalanishda turlar aro aloqadorlikka ptur etkazmasligi lozim. Zero ushbu biologi birlilarda yovvoyi turlarning sinantrop lashayotgan populyasiyalarini shakllanish jarayoni bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bakaev S.B. Vidovoy sostav gnezdyashixsya ptits Buxarskoy oblasti /Metodicheskoe posobie/, Buxara, 1987g.
2. Kashkarov D.N. Metod kolichestvenennogo izucheniya fauny poz vonochnyx i analiz poluchennyx dannyx // Tr.SR.Gos.un-ta., ser.8, Zool., vyp.1,1927. Tashkent. Izdat-vo Sr.Gos.un-ta. S.3-24.
3. Maslov N.M. Ptitsy Buxarskoy oblasti / Sbornik nauchnyx trudov Buxarskogo Gospedinstituta ., Buxara 1947g.
4. Novikov G.A. Metodika polevyx issledovaniy po ekologii nazemnyx rozvonochnyx. Moskva, 1953. S 7-591.
5. To'raev M.M, Xolboev F.R. Rayimov A.R. "Buxoro viloyati qushlari" /Metodik qo'llanma/. Toshkent, "Navo'z" nashriyoti, 2015y.
6. To'raev M.M, Xolboev F.R. "Buxoro viloyatida uchrovchi nodir va kam sonli qushlar ekologiyasi" //Metodik qo'llanma/. Buxoro. "Durdona" nashriyoti, 2017y
7. Turaev Mukhtor Murodovich, Kholliiev Askar ergashovich // The role of environmental factors in the re-breeding of waterfowl in the steppe zone . ISSN: 2278-4853 Vol 8, Issue 10, October 2019 Impact Factor: SJIF 2018 = 6.053 TRANS Asian Research Journals <http://www.tarj.in> 3 Published by: Asian Journal of Multidimensional Research, 71-79
8. Avaz Rayimov*, Muxtor Turaev, Nodira Azizova and Nazira Turaeva « Taxonomic analysis of the species composition and fauna of fish caught in the watery areas of Bukhara region» e3S Web of Conferences 389, 03062 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338903062> UESF-2023
9. Anna Ten, Roman Kashkarov, Gulara Matekova, Ilia Zholdasova & Mukhtor Turaev /Akpetky lakes, Sarykamys lake, Ayakaghytma lake, and their desert ; Sandgrouse 34 (2012).
10. A.R. Rayimov¹ , M.M. Turaev , and B.F. Aripov // ecological groups of reptiles found in Bukhara region. BIO Web of Conferences 93, 01026 (2024) <https://doi.org/10.1051/bioconf/20249301026> Forestry Forum 2023
11. RD Kashkarov, DR Uelsh, OR Kashkarov, EE Xurshut, AA Ataxodjaev, VO Sudarev, LE Belyalova, SE Fundukchiev, MM Turaev. Soxranenie i ustoychivoe ispolzovanie resursov bioraznoobraziya osnovnyx ekosistem Uzbekistana (Metodicheskie rekomendatsii po podgotovke i realizatsii Planov Deystviy).
12. Turaev M.M. Fauna population and ecology of birds in the lower reaches of the Amu Darya \\ Avtoref. Diss. Ph.D. - Tashkent, 1995 .-- 20 p